Orol dengizining qurigan tubida ekosistemalarni qayta tiklash yo’llarini ishlab chiqishga qaratilgan tadiqotlar davom ettirilmoqda

O’zbekiston Respublikasining cho’llanishga qarshi kurashish Milliy dasturining (1999) “Cho’llanishni kartografik tahlil qilish va baholash uchun matematik modellashtirish, bundan tashqari, sun’iy yo’ldosh ma’lumotlari yordamida cho’l hududlaridagi yaylov o’simliklar qoplami holatining kuzatuv tizimi asosidagi tadqiqot metodlarini ishlab chiqish” vazifalariga binoan O’zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti hamda Mo’ynoq davlat o’rmon xo’jaligi o’rtasida Orol dengizi qurigan tubining o’simliklar holatini baholash, yaylovlarini inventarizatsiyalash va natijada Mo’ynoq davlat o’rmon xo’jaligi yaylovlarining elektron-raqamli xaritalarini tuzish bo’yicha olib borilayotgan hamkorlikdagi tadqiqotlari doirasida Orol dengizi qurigan tubining 810 000 gektar maydonidagi yaylovlarining, jumladan, tabiiy o’simliklar qoplamidan iborat bo’lgan yashil qoplamalarning holati o’rganildi.

Tadqiqotlar natijalari asosida, Orol dengizi qurigan tubining jami 2 274 976 gektar hududi raqamlashtirildi va kartografik birliklarga ajratildi. Yaylov hududi 34 ta kartografik birliklardan iborat bo’lib, tarkibida o’simlik qoplamiga ega bo’lmagan maydonlar hamda galofil, psammofil, gipsofil, to’qay yaylov sinflariga mansub bo’lgan yaylov tiplarini o’z ichiga olishi aniqlandi.

Tadqiqotlar davomida O’zbekiston Respublikasi O’rmon qo’mitasi qoshidagi “O’rmonloyiha” davlat unitar korxonasi xodimlari bilan birgalikda dengizning qurigan tubidagi Axantay rayoni va unga janubiy va janubi-sharqiy tomondan chegaradosh hududlar ham batafsil monitoring qilindi.

Tadqiqotlar davomida dengizning qurigan tubida o’rmon melioratsiyasi tadbirlarini amalga oshirish mumkin bo’lgan hududlar aniqlandi hamda dengizning qurigan tubining tabiiy o’simliklar bilan qoplanish jarayoni bosqichlari ilmiy asoslab berildi.